

XORAZM VILOYATI IQTISODIY SALOHIYATINI BAHOLASH VA UNING MINTAQA RAQOBATDOSHLOGIGA TA'SIRI

Narmetova Dilafruz Azamatovna

*Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti Ijtimoiy-iqtisodiy fanlar fakulteti
stajyor o'qituvchisi*

E-mail: narmetovadilafruzazamatovna@gmail.com,

+998937407788

Annotatsiya. Ushbu maqola orqali Xorazm viloyatining iqtisodiy salohiyatini baholash va uning mintaqa raqobatbardoshligiga ta'sirini tahlil qiladi. Tadqiqot viloyatning sanoat, qishloq xo'jaligi, xizmatlar sohasi, investitsiya imkoniyatlari va infratuzilma salohiyati kabi ko'rsatkichlarini o'rgangan holda, hududning raqobatbardoshligini oshirish yo'nalishlarini aniqlaydi. Maqola natijalari viloyat iqtisodiy salohiyati mintaqa raqobatbardoshligiga sezilarli ta'sir ko'rsatishini va strategik rivojlanish uchun amaliy tavsiyalarni shakllantirish imkonini beradi.

Kalit so'zlar: iqtisodiy salohiyat, mintaqa raqobatbardoshligi, hududiy rivojlanish, investitsiya salohiyati.

KIRISH

Mintaqaviy raqobatbardoshlik — bu iqtisodiy subyektlar uchun jozibali investitsion muhitni yaratish, ishlab chiqarish resurslarini samarali yo'naltirish hamda uzoq muddatli ijtimoiy-iqtisodiy o'sishni ta'minlash qobiliyatidir. Raqobatbardoshlik konsepsiyasi ko'plab olimlar tomonidan quyidagicha ta'riflanadi: mintaqaning firmalar va aholi uchun barqaror, jozibali muhit yaratish qobiliyati bo'lib, u iqtisodiy samaradorlik, institutsional sifat, inson kapitali va infratuzilma omillaridan iborat kompleks tizimdir — bu multidimensial yondashuv regionning strategik salohiyatini aniqlashda muhimdir.

Zamonaviy iqtisodiy sharoitda mintaqa raqobatbardoshligi hududning resurslardan samarali foydalanish, investitsiyalarni jalb etish va aholi farovonligini oshirish qobiliyati bilan belgilanadi. M.Porter ta'kidlaganidek, hududiy raqobatbardoshlik ishlab chiqarish omillari, institutsional muhit va innovatsion salohiyat uyg'unligiga asoslanadi [1].

P.Krugman mintaqaviy raqobatbardoshlikni bevosita ishlab chiqarish samaradorligi va mehnat unumdorligi bilan bog'laydi [2]. Yevropa Komissiyasi tomonidan ishlab chiqilgan Regional Competitiveness Index (RCI) esa raqobatbardoshlikni iqtisodiy, ijtimoiy va institutsional ko'rsatkichlar majmuasi sifatida talqin qiladi [3].

Ushbu yondashuvlar asosida Xorazm viloyati iqtisodiy salohiyatini baholash va uning mintaqa raqobatbardoshligiga ta'sirini aniqlash ilmiy va amaliy jihatdan dolzarb

hisoblanadi.

Xorazm viloyati iqtisodiy salohiyati va raqobatbardoshligini baholash esa aynan shu ko'rsatkichlar orqali mahalliy iqtisodiy strategiyalarni shakllantirish uchun zarurdir. Maqolada Xorazm viloyatining resurs, ishlab chiqarish va investitsion salohiyatlari tahlil qilinadi hamda ularning raqobatbardoshlikka ta'siri integratsiyalangan model orqali baholanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Mintaqaviy raqobatbardoshligini ta'minlashda uning iqtisodiy salohiyatidan samarali foydalanish masalasi iqtisodiy adabiyotlarda muhim ilmiy yo'nalishlardan biri sifatida keng yoritilgan. Xususan, hududiy rivojlanish, mintaqaviy iqtisodiyot va raqobatbardoshlik nazariyalarida iqtisodiy salohiyat tushunchasi mintaqaning barqaror o'sishi va raqobat ustunliklarini shakllantirishning asosiy omili sifatida talqin qilinadi.

Ilmiy manbalarda iqtisodiy salohiyat mintaqaning tabiiy resurslari, ishlab chiqarish bazasi, mehnat resurslari, infratuzilma, investitsiya muhiti va innovatsion imkoniyatlari majmui sifatida qaraladi. Porter, Krugman, Asheim kabi olimlarning tadqiqotlarida mintaqaviy raqobatbardoshlik aynan ushbu resurslardan foydalanish samaradorligi bilan belgilanishi ta'kidlangan. Ularning fikricha, mintaqada mavjud resurslarga emas, balki ularni qay darajada samarali va maqsadli boshqara olishiga ko'ra raqobatbardosh bo'ladi.

O'zbekiston olimlari tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda ham mintaqalarning iqtisodiy salohiyati va raqobatbardoshligi o'rtasidagi uzviy bog'liqlik ilmiy jihatdan asoslab berilgan. Xususan, hududiy iqtisodiy salohiyatni baholashda yalpi hududiy mahsulot, sanoat va qishloq xo'jaligi, ishlab chiqarish hajmi, eksport salohiyati, investitsiyalar oqimi va bandlik darajasi asosiy ko'rsatkichlar sifatida qo'llaniladi. Ushbu yondashuvlar Xorazm viloyati iqtisodiy salohiyatini tahlil qilishda ham metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

Xorazm viloyati bo'yicha olib borilgan ilmiy izlanishlarda hududning iqtisodiy salohiyati asosan qishloq xo'jaligi, sanoatni qayta ishlash tarmoqlari, mehnat resurslari va turizm imkoniyatlari bilan bog'liq holda o'rganilgan. Tadqiqotchilar viloyatda qishloq xo'jaligi yetakchi tarmoq ekanini, ammo uning xom-ashyo yo'nalishida qolib ketayotgani mintaqada raqobatbardoshligini cheklayotganini ta'kidlaydilar. Shu bois, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini chuqur qayta ishlash va qo'shilgan qiymat zanjirlarini rivojlantirish zarurligi ilmiy ishlarda alohida qayd etiladi.

Sanoat salohiyati bo'yicha adabiyotlarda Xorazm viloyatida yengil sanoat, oziq-ovqat sanoati va qurilish materiallari ishlab chiqarish istiqbollari mavjudligi ko'rsatiladi. Biroq mavjud ishlab chiqarish quvvatlaridan to'liq foydalanilmasligi, texnologik yangilanishning yetarli emasligi va investitsiya faolligining pastligi mintaqaning raqobatbardoshligiga salbiy ta'sir ko'rsatayotganini kuzatishimiz mumkin.

Mehnat resurslari salohiyatiga bag'ishlangan tadqiqotlarda Xorazm viloyatida ishchi kuchi son jihatidan yetarli ekani, biroq uning sifat darajasi va zamonaviy mehnat bozori talablariga mosligi muammoli ekanligi ko'rsatib o'tiladi. Ilmiy adabiyotlarda

inson kapitalini rivojlantirish, kasbiy ta'lim va malaka oshirish tizimini takomillashtirish mintaqa raqobatbardoshligini oshirishning muhim sharti sifatida baholanadi.

Shuningdek, turizm salohiyati masalasi ko'plab tadqiqotlarda yoritilgan. Xorazm viloyatining boy tarixiy-madaniy merosi hududning iqtisodiy salohiyatini diversifikatsiya qilish va raqobatbardoshligini oshirish uchun muhim imkoniyat sifatida baholanadi. Biroq infratuzilma, servis sifati va marketing mexanizmlarining yetarli darajada rivojlanmagani bu salohiyatdan to'liq foydalanishga to'sqinlik qilmoqda.

Umuman olganda, mavzuga oid adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, Xorazm viloyatining iqtisodiy salohiyati yetarli bo'lishiga qaramay, undan foydalanish samaradorligi pastligi mintaqa raqobatbardoshligining to'liq namoyon bo'lishiga to'sqinlik qilmoqda. Ilmiy tadqiqotlarda mavjud salohiyatni kompleks baholash, tarmoqlararo muvofiqlikni ta'minlash va strategik boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish zarurligi asoslab berilgan. Shu jihatdan, Xorazm viloyati iqtisodiy salohiyatini baholash va uning mintaqa raqobatbardoshligiga ta'sirini chuqur tahlil qilish dolzarb ilmiy-amaliy ahamiyatga ega hisoblanadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda quyidagi ilmiy uslublar qo'llanildi:

Statistik tahlil — Xorazm viloyati yalpi hududiy mahsuloti, sanoat, qishloq xo'jaligi va investitsiya ko'rsatkichlari asosida [7], [8];

Kompleks-indeks yondashuvi — mintaqa iqtisodiy salohiyatini integral baholash modeli shakllantirildi [5], [6]; Mintaqa raqobatbardoshligini baholashda kompleks indikatorli yondashuvlar asosida integratsiyalangan model ishlab chiqilib, u resurs salohiyati, ishlab chiqarish samaradorligi va investitsion muhitning raqobatbardoshlikka ta'sirini o'lchaydi.

Solishtirma tahlil — viloyat ko'rsatkichlari respublika o'rtacha darajasi bilan taqqoslandi [7].

Axborot manbalari sifatida Davlat statistika qo'mitasi, Xorazm viloyati statistika boshqarmasi hamda xalqaro tashkilotlar ma'lumotlaridan foydalanildi [8], [10].

1-jadval.

Xorazm viloyatining asosiy ijtimoiy-iqtisodiy ko'rsatkichlari.

№	Ko'rsatkichlar	2018	2020	2022	2024
1	YaHM (mlrd so'm)	18 450	24 300	31 700	38 900
2	Sanoat mahsuloti (mlrd so'm)	6 200	8 150	11 400	14 800
3	Qishloq xo'jaligi (mlrd so'm)	7 900	9 600	12 300	14 500
4	Asosiy kapitalga investitsiyalar (mlrd so'm)	3 100	4 250	6 800	8 600

5	Ekspart (mln AQSh dollari)	210	260	340	420
---	----------------------------	-----	-----	-----	-----

Ushbu ma'lumotlar Davlat statistika qo'mitasi ochiq axborotlari asosida umumlashtirilgan.

2-jadval.

Xorazm viloyati statistika boshqarmasi ma'lumotlari asosida muallif hisob-kitobi.

№	Ko'rsatkich	O'sish sur'ati, %
1	Yalpi hududiy mahsulot (YHM)	107,9
2	Sanoat ishlab chiqarishi	108,4
3	Qishloq xo'jaligi	104,9
4	Xizmatlar sohasi	115,2
5	Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar	134,9

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, 2025 yilda Xorazm viloyatida iqtisodiy salohiyatning barcha asosiy yo'nalishlarida ijobiy o'sish kuzatilgan. Ayniqsa, asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmining 134,9 foizga oshishi hududning investitsion jozibadorligi va raqobatbardoshligi kuchayib borayotganini ko'rsatadi.

TAHLILLAR VA NATIJALAR

Hududiy iqtisodiy salohiyat mintaqaning mavjud resurslari, ishlab chiqarish quvvatlari, institutsional muhit va investitsion imkoniyatlari yig'indisi sifatida talqin etiladi. Xorazm viloyati iqtisodiy salohiyati hududning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasi va mintaqaviy raqobatbardoshligini belgilovchi ko'p komponentli tizimni tashkil etadi.

3-jadval.

Xorazm viloyati iqtisodiy salohiyatining tarkibi (2024-yil)

№	Salohiyat turi	Ulushi, %
1	Resurs salohiyati	32
2	Ishlab chiqarish salohiyati	28
3	Investitsion salohiyat	22
4	Ekspart salohiyati	18

Nazariy jihatdan viloyat iqtisodiy salohiyatining tarkibi quyidagi asosiy elementlardan iborat:

1. Resurs salohiyati (RS). Resurs salohiyati hududning tabiiy-iqtisodiy asosini tashkil etadi. U quyidagilarni o'z ichiga oladi:

mehnat resurslari (iqtisodiy faol aholi ulushi, bandlik darajasi);
yer va suv resurslari (sug'oriladigan yer maydonlari hajmi, suv ta'minoti darajasi);

demografik ko'rsatkichlar (aholi soni o'sishi, urbanizatsiya darajasi).

Xorazm viloyatida agrar yo'nalish ustuvor bo'lib, sug'oriladigan yer resurslari iqtisodiy salohiyatning asosiy determinanti hisoblanadi.

Xorazm viloyatining resurs salohiyati demografik o'sish va agrar resurslar bilan tavsiflanadi. 2026 yil boshiga viloyat aholisi 2,07 mln kishini tashkil etib, bu mehnat resurslarining yetarli ekanligini ko'rsatadi [8]. Aholining yuqori bandligi qishloq xo'jaligi va xizmatlar sektorida jamlangan.

2. Ishlab chiqarish salohiyati (IS). Ishlab chiqarish salohiyati hududda yaratilayotgan yalpi hududiy mahsulot (YHM), sanoat ishlab chiqarishi, qishloq xo'jaligi mahsuloti va xizmatlar hajmi bilan tavsiflanadi. Ushbu komponent iqtisodiy resurslardan foydalanish samaradorligini aks ettiradi.

Xorazm viloyatida qishloq xo'jaligi, to'qimachilik sanoati, oziq-ovqat sanoati hamda kichik biznes subyektlari iqtisodiy o'sishning asosiy manbalari hisoblanadi.

2025-yilda Xorazm viloyatida yalpi hududiy mahsulotning real o'sish sur'ati 107,9% ni tashkil etdi. Sanoat ishlab chiqarishi 108,4%, qishloq xo'jaligi 104,9% va xizmatlar sohasi 115,2% ga o'sdi [8]. Ushbu ko'rsatkichlar hududda ishlab chiqarish bazasining barqaror rivojlanayotganidan dalolat beradi.

1-diagramma.

Xorazm viloyati raqamlarda (2025-yil yanvar-dekabr holatiga)



Diagramma natijalari shuni ko'rsatadiki, Xorazm viloyatida eng yuqori o'sish investitsion faoliyat hissasiga to'g'ri kelmoqda. Xizmatlar sohasidagi yuqori dinamika (115,2%) hududda iqtisodiy diversifikatsiya jarayoni jadallashayotganini bildiradi. Ushbu holat mintaqa raqobatbardoshligini oshirishda xizmatlar va investitsiyalar sektorining yetakchi rolini tasdiqlaydi.

3. Investitsion salohiyat. Investitsion salohiyat hududga jalb etilgan investitsiyalar hajmi, asosiy kapitalga kiritilgan mablag'lar, xorijiy investitsiyalar ulushi hamda biznes muhiti bilan belgilanadi. Bu ko'rsatkich iqtisodiy o'sishning

intensiv omillarini shakllantiradi.

Viloyatda infratuzilma loyihalarining amalga oshirilishi va sanoat zonalarining tashkil etilishi investitsion jozibadorlikni oshirmoqda.

Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi 2025 yilda o'tgan yilga nisbatan 134,9% ga oshgan [8]. Bu holat investitsion muhitning yaxshilanayotganini va hududning raqobatbardoshligini kuchaytirayotganini ko'rsatadi. Jahon banki tadqiqotlariga ko'ra, investitsiyalar o'sishi mintaqaviy iqtisodiy o'sishning asosiy drayverlaridan biridir [10].

Statistik tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, Xorazm viloyatida iqtisodiy salohiyatning o'sishi mintaqa raqobatbardoshligining asosiy omillaridan biri hisoblanadi. Biroq salohiyatning tarkibiy qismlarida muvozanat yetarli emas. Ayniqsa, investitsion va eksport salohiyatining past ulushi raqobatbardoshlikni cheklovchi omil bo'lib qolmoqda.

Shuningdek, so'nggi yillarda viloyatda turizm, xizmat ko'rsatish va kichik sanoatni rivojlantirish bo'yicha yirik loyihalar (masalan, turizm va xizmat sektoriga 200 mln AQSh dollari miqdoridagi investitsiya) rejalashtirilgan bo'lib, bu raqobatbardoshlikni yanada mustahkamlashga xizmat qiladi.

Xorijiy tajribaga ko'ra, Germaniya va Janubiy Koreyada iqtisodiy salohiyatni klaster va innovatsion yondashuvlar orqali rivojlantirish mintaqaviy raqobatbardoshlikni sezilarli oshirgan. Ushbu yondashuvlarni Xorazm viloyatida ham qo'llash mumkin.

Olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, Xorazm viloyatida iqtisodiy salohiyatning asosiy drayverlari — investitsiyalar va xizmatlar sektoridir. OECD tadqiqotlariga ko'ra, mintaqalarda aynan investitsion va institutsional muhit raqobatbardoshlikni belgilovchi muhim omil hisoblanadi [4].

Taklif etilgan integral baholash modeli resurs, ishlab chiqarish va investitsion omillarni yagona indeksda birlashtirish orqali hududning raqobatbardoshlik salohiyatini aniqlash imkonini beradi [5], [6]. Bu yondashuv respublika hududlari bo'yicha qiyosiy tahlil o'tkazish uchun ham qo'llanilishi mumkin. Maqolada taklif etilgan integral baholash modeli quyidagi komponentlardan tashkil topadi:

Resurs indeksi (RI) — aholi soni, mehnat bozori ko'rsatkichlari hamda agrar resurslar salohiyatini aks ettiradi;

Ishlab chiqarish indeksi (PI) — yalpi hududiy mahsulot, sanoat va xizmatlar sohasi rivojlanish sur'atlarini tavsiflaydi;

Investitsion indeks (II) — asosiy kapitalga yo'naltirilgan investitsiyalar o'sish su'ati hamda ularning tarkibini ifodalaydi.

Ushbu komponentlarni integrallash orqali Raqobatbardoshlik salohiyati indeksi (RSI) quyidagi tenglama yordamida aniqlanadi:

$$RSI = \alpha \cdot RI + \beta \cdot PI + \gamma \cdot II$$

bu yerda: α , β , γ — mos ravishda resurs, ishlab chiqarish va investitsion komponentlarning vazn koeffitsiyentlari bo'lib, ular mintaqaning iqtisodiy rivojlanish strategiyasi hamda ustuvor yo'nalishlariga muvofiq ravishda belgilanadi.

Mazkur integral baholash modeli Xorazm viloyati misolida amaliy sinovdan

o'tkazilgan. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, investitsiyalar hajmining yuqori o'sish sur'atlari mintaqada iqtisodiy o'sishni jadallashtiruvchi asosiy omil bo'lib xizmat qilmoqda.

4-jadval.

Iqtisodiy salohiyat indeksi va raqobatbardoshlik ko'rsatkichlari

Yillar	ISI (indeks)	Bandlik darajasi, %	Eksport o'sishi, %
2018	0,48	66,2	4,1
2020	0,55	67,8	6,3
2022	0,63	69,4	8,7
2024	0,71	71,6	11,2

Shu bilan birga, ishlab chiqarish va resurs salohiyati komponentlarida investitsiyalarning samaradorligini oshirish zarurligi aniqlanib, ularning o'zaro uyg'un rivojlanishi mintaqaning barqaror raqobatbardoshligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xorazm viloyatining iqtisodiy salohiyati mintaqaning raqobatbardoshligini oshirishda hal qiluvchi omillardan biri hisoblanadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, hududda ishlab chiqarish hajmlarining izchil o'sishi, investitsion faollikning ortib borishi hamda mavjud resurslardan foydalanish ko'rsatkichlarining yaxshilanishi viloyatning barqaror iqtisodiy rivojlanishini ta'minlamoqda. Shu bilan birga, taklif etilgan integral baholash modeli mintaqaviy iqtisodiy rivojlanishni kompleks tahlil qilish, mavjud muammolarni aniqlash va samarali hududiy siyosatni ishlab chiqishda muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

O'tkazilgan tahlillar asosida quyidagi asosiy xulosalar chiqarildi:

1. Xorazm viloyatida iqtisodiy salohiyat yildan-yilga oshib bormoqda, ammo mazkur salohiyatdan foydalanish samaradorligi hali to'liq darajada ta'minlanmagan. Xususan, ishlab chiqarish va resurs salohiyati mavjud bo'lsa-da, ularning yuqori qo'shimcha qiymat yaratuvchi yo'nalishlarga yo'naltirilishi yetarli emas.

2. Iqtisodiy salohiyat indeksi bilan mintaqaning raqobatbardoshlik ko'rsatkichlari o'rtasida kuchli ijobiy bog'liqlik mavjud. Bu holat iqtisodiy salohiyatni rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlar bevosita hududning raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qilishini tasdiqlaydi.

3. Investitsion va eksport salohiyatini rivojlantirish hududiy raqobatbardoshlikni oshirishning ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilish, sanoat va xizmatlar sohasida eksportbop mahsulotlar ulushini oshirish mintaqaning tashqi bozorlardagi mavqeini mustahkamlashga imkon beradi.

4. Hududiy iqtisodiy salohiyatni oshirishda innovatsiyalarni joriy etish, kichik

biznes va xususiy tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash, shuningdek, mehnat resurslarining malakasini oshirish muhim ahamiyat kasb etadi.

5. Taklif etilgan integral baholash modeli hududlar kesimida iqtisodiy salohiyat va raqobatbardoshlikni baholashda universal metodik vosita sifatida foydalanilishi mumkin bo‘lib, u mintaqaviy rivojlanish strategiyalarini ishlab chiqishda asos bo‘lib xizmat qiladi.

Umuman olganda, mazkur tadqiqot natijalari Xorazm viloyatining iqtisodiy salohiyatidan samarali foydalanish, raqobatbardoshligini oshirish hamda hududning uzoq muddatli barqaror rivojlanishini ta’minlashga qaratilgan strategik qarorlarni ishlab chiqishda muhim amaliy ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Porter M.E. The Competitive Advantage of Nations. — New York: Free Press, 1998. — 896 p.
2. Krugman P. Competitiveness: A Dangerous Obsession // Foreign Affairs. — 1994. — Vol. 73, No. 2. — pp. 28–44.
3. European Commission. The EU Regional Competitiveness Index 2.0. — Luxembourg: Publications Office of the European Union, 2022. Manba: https://ec.europa.eu/regional_policy
4. OECD. Regional Competitiveness and Skills. — Paris: OECD Publishing, 2016. Manba: <https://www.oecd.org/>
5. Malecki E.J. Regional competitiveness and local development // Journal of Economic Geography. — 2004. — Vol. 4. — pp. 379–403.
6. Capello R. Regional Economics. — London: Routledge, 2011. — 320 p.
7. Respublika statistika qo‘mitasi. O‘zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish ko‘rsatkichlari. — Toshkent, 2024. Manba: <https://stat.uz/>
8. Xorazm viloyati statistika boshqarmasi. Xorazm viloyatining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi: statistik to‘plam. — Urganch, 2025. Manba: <https://www.xorazmstat.uz/>
9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. Hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish strategiyasiga oid qarorlar. — Toshkent, 2022–2025. Manba: <https://president.uz/>
10. World Bank. Subnational Competitiveness and Growth. — Washington, DC: World Bank Group, 2020. Manba: <https://www.worldbank.org/>
11. UNDP. Human Development Report: Regional Perspectives. — New York: UNDP, 2023. Manba: <https://hdr.undp.org/>
12. Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi. Hududiy investitsiya salohiyati va rivojlanish istiqbollari. — Toshkent, 2024. Manba: <https://invest.gov.uz/>
13. The Europe Today. Development Strategy for Khorezm Region. — 2025. Manba: <https://theeuropetoday.com/>
14. Todaro M., Smith S. Economic Development. — 12th ed. — Pearson Education, 2015. — 864 p.
15. Akhmedov D., Yuldashev N. Mintaqaviy iqtisodiyot va raqobatbardoshlik nazariyasi // Iqtisodiy fanlar jurnali.—2021.— No4. — 45–52-b.